

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

**O'zbekiston va Tojikistonning 1992-2024-yilgi diplomatik,
qo'shnichilik aloqalari.**

Yarmatov Nurmuhammad Ismoil o'g'li

DTPI Tarix ta'lim yo'nalishi talabasi

E-mail: yormatovnurmuhammad175@gmail.com

Telefon raqami: +998 94 206 98 07

Xoliqberdiyev Shohjahon O'ktam o'g'li

DTPI Tarix ta'lim yo'nalishi talabasi

E-mail: xoliqberdiyevshohjahon5@gmail.com

Telefon raqami: +998 91 968 79 03

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek hamda tojik xalqining aloqalari munosabatlari manbalar asosida tahlil qilingan shuningdek ,ular orasidaki munosabat davri 1991-2024-yillarni qamrab olgan bo'lib hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Tojik, Islom Karimov, Jomiy, Sadriddin Ayniy "Qullar", E. Rahmonov, madaniyat kunlari, Xo'jand shahrida.

Tojik va o'zbek xalqlarining yashash sharoiti, urf-odatlari, turmush tarzi bir-biriga nihoyatda yaqin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, o'zbek va tojik xalqlari ikki tilda gaplashadigan bir xalq. Bu 2 xalqning o'tmishda birgalashib, o'z ozodligi, erki uchun kurashgani, o'lmas me'moriy yodgorliklari va san'at durdonalarini yaratgani tarixdan ma'lum. Asrlar davomida ko'pgina tojik va o'zbek san'atkorlari biribiriga ustoz, biribiriga shogird bo'lib ijod qilib kelishgan. Ikki buyuk arbob — Jomiy bilan Navoiyning do'stligi va hamkorligi tojik hamda o'zbek adabiy va madaniy aloqalari tarixidagi yorqin sahifadir. Jomiy va Navoiy boshlab bergan zullisonaynlik an'analarini Mashrab, Turdi, Nodira, Furqat, Zavqiy, Anbar otin, Asiriyl, Ayniy, Hamza va boshqalar davom ettirdilar. Hamza tojik tilida ham g'oyaviy badiiy jihatdan yetuk she'rlar yaratishi bilan barobar o'zining drama truppasi bilan Tojikistonning shahar va tumanlarida tomoshalar ko'rsatdi. Sadriddin Ayniy "Qullar" romanini o'zbek tilida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yaratdi va tojik hamda o‘zbek tilida samarali ijod qilib, o‘zining ham badiiy, ham ilmiy asarlari bilan 2 xalq madaniyatini rivojlantirishda katta rol o‘ynadi. 20-yillar oxiridan Tojikiston teatrlarida Hamzaning "Boy ila xizmatchi", K. Yashinining "Gulsara", F. Zafariyning "Halima", Xurshidning "Farhod va Shirin", keyinroq S. Abdullaning "Tohir va Zuxra", Uyg‘un va I. Sultonning "Alisher Navoiy", Tuyg‘unning "Muhabbat" va boshqa pyesalari sahnalashtirildi. Ayni vaqtida tojik dramaturglaridan S. Ulug‘zodaning "Gavhari shamchiroq", S. G‘anining "To‘y", G‘. Abdulloning "Sharq sadosi" kabi pyesalari o‘zbek teatrlari sahnalarida namoyish qilindi. Tojik-o‘zbek madaniy va adabiy aloqalarning ravnaq topishida badiiy tarjimachilik ham muhim ahamiyatga ega. S. Ayniyning 8 jildli asari, A. Lohutiyning "Devon"i, M. Tursunzodaning deyarli barcha asarlari, Mirshakarning "Biz Pomirdan keldik", "Oltin qishloq", "Tog‘ qizining ishqisi", J. Ikromiyning "Olov qizi", "Buxoroning o‘n ikki darvozasi", S. Ulug‘zodaning "Yoshligimiz tongi", "Vos‘ye", R. Jalilning "Po‘lod va Gulro“, "Sho‘rob", F. Niyoziyning "Vafo" asarlari va boshqalarning she’riy, nasriy asarlari o‘zbek tilida nashr etilgan. Ayni vaqtida Hamza, A. Qodiriy, F. G‘ulom, Oybek, A. Qahhor, G‘ayratiy, H. Olimjon, Sh. Rashidov, Zulfiya, A. Muxtor, R. Fayziy, S. Abdulla, E. Vohidov, A. Oripov, G. Jurayeva, B. Boyqobilov va boshqalarning asarlari tojik tiliga tarjima qilinib, Tojikistonda nashr etilgan¹. O‘zbek-tojik adabiy va madaniy aloqalarining ravnaq topishida Tojikistonda yashab o‘zbek tilida ijod qilgan shoir va yozuvchilar: Ashirmat, M. To‘lqin, M. Oston, O‘. Jamol, J. Toshmatov, Z. Do‘stmatov, K. Mamajonov, Sh. Sattor, A. Usmon, X. Qurbonova, S. Nishonova, J. Ergash, U. Umarov, A. Zuhur va b.ning ham hissasi bor. Ushbu ijtimoiy-tarixiy an’ana har 2 davlat milliy mustaqillikni qo‘lga kiritgach, yangicha mazmun kasb etdi. O‘zbekiston Tojikistondagi harbiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishda va uni ijobjiy yechimini topishda sezilarli mavqeni egalladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 1992-yil sentyabrda BMT ning Bosh kotibiga murojaatnama yo‘llab, xalqaro hamjamiyat e’tiborini Tojikiston muammolariga

¹https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Tojikiston_munosabatlari

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qaratib bu muammolarni tinch yo‘l bilan hal etishga chaqirdi. Tojikistonda tinchlik jarayonining amalga oshishi va ahdlashuvlarning barcha bosqichida O‘zbekiston rasmiy kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. 2000-yil 14—15 iyunda I. A. Karimovning rasmiy tashrif bilan Dushanbe shahrida bo‘lishi, E. Rahmonovning Toshkentda bo‘lishi o‘zbek-tojik munosabatlarining yangi pog‘onaga ko‘tarilishidan dalolat edi. 1998-yil yozda O‘zbekistonda Tojikiston Respublikasining madaniyat kunlari bo‘lib o‘tdi. 1995-yil Toshkent shahrida Tojikiston Respublikasining, 2000-yil Dushanbe shahrida O‘zbekiston Respublikasi elchixonasi ochilib, ular davlatlararo siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy aloqalarni muvofiqlashtirish yo‘lida xizmat qilmoqda. Keyingi vaqtida O‘zbekiston Respublikasi bilan Tojikistonning savdo-iqtisodiy aloqalari birmuncha rivojlandi.² O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida Tojikistonning ulushi 2003-yilda 2002-yilga nisbatan 24,7% oshdi va 2,2% ni tashkil etdi. O‘zbekiston va Tojikiston xalqlari do‘stligi tarix, madaniy-ma’naviy meros va ajdodlarning ezgu an'analari mushtarakligi, yaxshi qo‘schnichilik munosabatlariga asoslanadi. Aslida, o‘zbek va tojik bir daraxtning ikki shoxi, ikki daryoning bir irmog‘i, degan ta'riflar bejiz aytilmagan. Yorug‘ kunlarda ham, sinovli damlarda ham ikki xalq doimo yelkama-elka turgan, bir-birini qo‘llab-quvvatlab kelgan. Ikki mustaqil davlat joriy yilda o‘zaro diplomatik munosabatlar o‘rnatalganligining 30 yilligini nishonlamoqda. Shu munosabat bilan, Tojikistonning Xo‘jand shahrida “O‘zbekiston va Tojikiston do‘stligi abadiydir” mavzusida davra suhbati bo‘lib o‘tdi. Tadbir So‘g‘d viloyati O‘zbeklar ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan tashkillashtirildi. Ushbu markaz 2010-yilda tashkil etilgan bo‘lib, viloyatda yashayotgan o‘zbeklarni birlashtirish, millatlararo munosabatlar va o‘zaro do‘stlik aloqalarini mustahkamlash, tinchlik va hamjixatlik tamoyillarini ilgari surish kabi maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan. Muassasa tomonidan “Ma’naviyat” gazetasi va “Sharqnom” jurnali, Maftun Jo‘ra nomidagi mukofot ta’sis etilgan. Shuningdek, shoirlar va yozuvchilar, ilmiy soha vakillarini birlashtirish, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-

² O‘zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi matbuot xizmati

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

quvvatlash maqsadida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Davra suhbatida O‘zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkiloti Xalq diplomatiyasi markazi direktori Qobiljon Sobirov, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi bo‘lim boshlig‘i Feruz Bekov, “O‘zbekiston-Tojikiston” do‘stlik jamiyatni ijrochi direktori Shuhrat Suyunov, Respublika tojik milliy madaniy markazi raisi Gulandom Subhanova, So‘g‘d viloyati O‘zbeklar ma’naviyat va ma’rifat markazi raisi Ilhom Yusupov, ijodkorlar, ilmiy soha vakillari ishtirok etdi. Tadbirda so‘zga chiqqanlar o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishda ikki davlat rahbarlarining sa'y-harakatlari muhim omil bo‘layotganini ta‘kidlashdi. O‘zbekistonda ShHT Xalq diplomatiyasi markazi direktori Q.Sobirov Respublika hududida tojik madaniy markazlari, tojik tilida ta‘lim beriluvchi maktab va universitetlar samarali faoliyat yuritayotgani, gazeta va jurnallar nashr qilinayotganligi, teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar efirga uzatilayotganligiga urg‘u berdi. Shuningdek, mavjud aloqalarni yanada rivojlantirishda yoshlarni o‘zaro hurmat va do‘stlik ruhida tarbiyalashning muhim ahamiyat kasb etishini qayd etdi. Kun tartibidan yaqinda nashrdan chiqqan “Mehrnama” kitobining taqdimoti ham o‘rin oldi. Kitobda o‘zbekistonlik shoirlarning tojik tilidagi hamda tojikistonlik shoirlarning o‘zbek tilidagi ijod namunalari jamlangan.³ Tadbirning yana bir ahamiyatli jihatni, uning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun arafasida o‘tkazilganligidadir. Unda Xo‘jand davlat universiteti o‘zbek filologiyasi kafedrasini professor o‘qituvchilari o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etishdi. Kafedra yuqori ilmiy salohiyatga ega bo‘lib, yetuk mutaxassislar va ilmiy tadqiqotchilarni tayyorlab kelmoqda.

[4;78b] Shuningdek, tegishli tashkilot va muassasalarga O‘zbekistonda ShHT Xalq diplomatiyasi markazi tomonidan nashr etilgan “Sakkiz elning sakson sakkiz ertagi”, “Sakkiz elning son-sanoqsiz o‘giti”, “Sakkiz elning sakson ulug‘ siymosi” kitoblari taqdim etildi. Markaz direktori ushbu kitoblarni tojik tiliga tarjima qilish va nashrdan chiqarish taklifini berdi. Tashrifning madaniy qismida o‘zbek va tojik

³<https://www.scocenter.uz/postdetail/2920%20%80%98zbekiston%20va%20Tojikiston%20o%20%80%98rtasida%20diplomatik%20munosabatla>

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tillarida kuy-qo'shiqlar yangradi, she'rlar o'qildi. Ta'kidlash joizki, mazkur tadbir o'zbek-tojik do'stligining yorqin ifodasi, xalq diplomatiyasining o'ziga xos namunasi bo'ldi. Turli soha vakillari, fuqarolik jamiyatni institutlari, nodavlat tashkilotlar mutasaddilarining o'zaro muloqoti uchun "maydon" yaratildi. Bu esa kelgusida do'stlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash, o'zaro ishonchni shakllantirishga va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilishi shubhasiz.[5;89b]

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki,O'zbekiston va Tojikiston o'rta sidagi munosabatlar bir xilda silliq kechmagan .Shunga qaramasdan ikki davlat o'rta sidagi,savdo ,diplomatik aloqalar rivoj topib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Tojikiston_munosabatlari.
2. O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi matbuot xizmati.
3. <https://www.scocenter.uz/postdetail/292O%E2%80%98zbekiston%20va%20Tojikiston%20o%E2%80%98rtasida%20diplomatik%20munosabatlari>.
4. 1. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni Xo'jalik va huquq-78-bet, 2000.
5. 2. Vahobov A., Burxonov U., Jumaev N. Chet mamlakatlar moliyasi-89bet .T.: Yangi asr avlod. 2003